

KAMBAG'ALLIK DINAMIKASIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH

Ismailov Isomiddin Saidobbosovich

Kambag'allik ko'rsatkichlarini ilmiy aniqlash,
tarkibi va dinamikasini taxlil qilish boshqarmasi, bosh ilmiy xodim

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22856783>

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada O'zbekistonda kambag'allik darajasining o'zgarishiga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omillarni aniqlash va ularning ta'sir darajasini ekonometrik usullar asosida baholash masalalari tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi kambag'allik dinamikasi va unga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi statistik bog'liqlikni aniqlash hamda kambag'allikni qisqartirish siyosatining samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda statistik tahlil, dinamik qatorlar, korrelyatsion va regressiya tahlili usullaridan foydalanish nazarda tutiladi. Kambag'allik darajasi natijaviy ko'rsatkich sifatida olinib, aholi daromadlari, bandlik, ishsizlik, inflyatsiya, ijtimoiy transfertlar va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning unga ta'siri baholanadi. Olingan natijalar kambag'allikni qisqartirish bo'yicha manzilli siyosiy choralarni takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Kambag'allik, kambag'allik darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, aholi daromadlari, bandlik, ishsizlik, ijtimoiy himoya, ekonometrik model, regressiya tahlili, kambag'allik dinamikasi.

KIRISH.

Bugungi kunda mamlakat taraqqiyoti va jamiyat farovonligini ta'minlashning eng muhim shartlaridan biri inson manfaatlarini ta'minlash, aholi turmush darajasini izchil oshirish hamda kambag'allikni qisqartirishdan iborat. Zero, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy mezon nafaqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishi, balki ushbu o'sish natijalarining aholi hayotida aks etishi, fuqarolarning munosib daromad topishi va farovon hayot kechirishi bilan belgilanadi.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida inson qadri, xalq farovonligi va ijtimoiy adolat tamoyillari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son¹ Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston - 2030" strategiyasida mamlakatni rivojlantirishning uzoq muddatli ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan bo'lib, unda aholi farovonligini oshirish, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Mazkur strategik yondashuvning mantiqiy davomi sifatida 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son² Farmon bilan mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilandi. Ushbu hujjatda aholining farovonligini oshirish va inson uchun munosib sharoitlar yaratishga qaratilgan islohotlarni izchil davom ettirishga ustuvor ahamiyat berilgan.

Hozirgi zamonda kambag'allikni qisqartirish masalasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish siyosatida alohida o'rin tutadi. Chunki kambag'allik faqatgina aholining daromadlari yetarli emasligi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy hodisa emas, balki bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy sharoitlari, ijtimoiy himoya va inson kapitali kabi ko'plab omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy jarayondir.

Shu nuqtayi nazardan, kambag'allik darajasini muntazam ravishda o'rganish, uning tarkibi va hududiy xususiyatlarini aniqlash, vaqt davomida

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
https://gov.uz/oz/pages/2030_strategy

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son
<https://lex.uz/docs/-8050769>

o'zgarish dinamikasini baholash hamda unga ta'sir qiluvchi omillarni ilmiy asosda aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada, kambag'allikning o'zgarishiga qaysi omillar ko'proq ta'sir ko'rsatayotganini aniqlash davlat ijtimoiy siyosatining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Kambag'allikni ilmiy jihatdan baholashda statistik ma'lumotlardan foydalanish bilan bir qatorda ekonometrik yondashuvlarning ahamiyati ham ortib bormoqda. Ekonometrik usullar yordamida kambag'allik darajasi va unga ta'sir qiluvchi iqtisodiy hamda ijtimoiy omillar o'rtasidagi bog'liqlikni miqdoriy jihatdan baholash, omillarning ta'sir kuchini aniqlash va kelgusidagi o'zgarishlarni prognoz qilish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha samarali choralarni ishlab chiqish uchun uning faqat umumiy darajasini aniqlashning o'zi yetarli emas. Kambag'allikning shakllanishiga sabab bo'layotgan omillarni aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini o'rganish va har bir omilning natijaviy ko'rsatkichga ta'sirini miqdoriy baholash talab etiladi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda kambag'allik dinamikasiga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omillarni aniqlash va ularning ta'sir darajasini ekonometrik usullar yordamida baholashdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

- ❖ O'zbekistonda kambag'allik darajasining o'zgarish dinamikasini tahlil qilish;
- ❖ kambag'allikni shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omillarni aniqlash;
- ❖ kambag'allik darajasi va tanlangan omillar o'rtasidagi statistik bog'liqlikni baholash;
- ❖ ekonometrik model yordamida omillarning kambag'allikka ta'sir kuchini aniqlash;
- ❖ olingan natijalar asosida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi kambag'allik dinamikasiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni yagona ekonometrik yondashuv asosida baholash va ularning ta'sir darajasini miqdoriy jihatdan aniqlash bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalari kambag'allik ko'rsatkichlarini ilmiy asosda baholash, uning dinamikasini chuqur tahlil qilish hamda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan davlat siyosati choralarni yanada takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda kambag'allik dinamikasiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni aniqlash va ularning ta'sir darajasini baholash maqsadida statistik hamda ekonometrik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi kambag'allik darajasining vaqt davomida o'zgarishini aniqlash, mazkur o'zgarishga

ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirish va ular o'rtasidagi statistik bog'liqliklarni aniqlashga asoslanadi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasining rasmiy statistik ma'lumotlari tashkil etadi. Tahlil jarayonida kambag'allik darajasi, aholi daromadlari, bandlik, ishsizlik, inflyatsiya, ijtimoiy himoya va ta'lim bilan bog'liq ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Tadqiqot davri sifatida 2020-2025-yillarga tanlanib, mazkur davr mobaynida asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarish tendensiyalari tahlil qilinadi. Statistik ma'lumotlarning vaqt bo'yicha taqqoslanishi kambag'allik darajasidagi o'zgarishlarni aniqlash hamda uning shakllanish tendensiyalarini baholash imkonini beradi.

Tadqiqotda kambag'allik darajasi asosiy natijaviy ko'rsatkich sifatida belgilandi. Unga ta'sir etuvchi omillar sifatida aholi jon boshiga real daromadlar, bandlik darajasi, ishsizlik darajasi, inflyatsiya, ijtimoiy transfertlar va aholining ta'lim darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tanlandi. Mazkur omillar kambag'allikning iqtisodiy va ijtimoiy tabiatini hisobga olgan holda tanlangan bo'lib, ularning har biri aholining turmush darajasi va iqtisodiy imkoniyatlariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Xususan, aholi real daromadlarining oshishi moddiy farovonlikni yaxshilashi kutilsa, ishsizlikning ortishi barqaror daromad manbalarining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Inflyatsiya aholining real xarid qobiliyatiga ta'sir etuvchi omil sifatida qaraladi. Ijtimoiy transfertlar va ta'lim esa aholining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim omillar sifatida baholanadi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida statistik tahlil usullaridan foydalanilib, kambag'allik darajasi va unga ta'sir qiluvchi omillarning yillar davomida o'zgarishi o'rganiladi. Bunda ko'rsatkichlarning mutlaq va nisbiy o'zgarishlari, o'sish va kamayish tendensiyalari hamda ular o'rtasidagi farqlar tahlil qilinadi. Shuningdek, kambag'allik darajasi bilan tanlangan ijtimoiy-iqtisodiy omillar o'rtasidagi bog'liqlikning yo'nalishi va zichligini aniqlash maqsadida korrelyatsion tahlil qo'llaniladi. Ushbu yondashuv keyingi ekonometrik tahlil uchun asosiy omillarni tanlash imkonini beradi.

Tadqiqotning asosiy metodik yo'nalishini ko'p omilli regressiya tahlili tashkil etadi. Mazkur usul yordamida kambag'allik darajasining o'zgarishiga tanlangan ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'siri miqdoriy jihatdan baholanadi. Regressiya tahlili natijasida har bir omilning kambag'allikka ta'sir yo'nalishi, nisbiy ta'sir darajasi va statistik ahamiyati aniqlanadi. Bunda omilning ijobiy yoki salbiy yo'nalishda ta'sir qilishi hamda uning kambag'allik darajasidagi o'zgarishlarni qay darajada izohlashi asosiy e'tibor markazida bo'ladi.

Ekonometrik modelning ishonchliligi va statistik ahamiyatini baholashda determinatsiya darajasi, alohida koeffitsientlarning statistik ahamiyati hamda

modelning umumiy ahamiyatini ifodalovchi mezonlardan foydalaniladi. Shuningdek, tanlangan omillar o'rtasida kuchli o'zaro bog'liqlik mavjudligi, model qoldiqlarining xususiyatlari va boshqa ekonometrik muammolar tekshiriladi. Bu esa olingan natijalarning ishonchliligini oshirish va noto'g'ri xulosalar chiqarish ehtimolini kamaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning dastlabki natijalari O'zbekistonda kambag'allik darajasining so'nggi yillarda izchil o'zgarib borayotganini ko'rsatadi. Kambag'allik dinamikasini baholashda nafaqat uning umumiy darajasi, balki aholi daromadlari, bandlik, ishsizlik, inflyatsiya, ijtimoiy himoya va ta'lim kabi omillarning o'zgarishi ham kompleks ravishda ko'rib chiqildi. Mazkur ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligini o'rganish kambag'allikni qisqartirish jarayonining iqtisodiy va ijtimoiy omillarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

2020-2025-yillar davomida kambag'allik darajasidagi o'zgarishlar mamlakatda amalga oshirilayotgan

NATIJALAR

O'zbekistonda kambag'allik darajasining so'nggi yillardagi dinamikasi mamlakatda aholi farovonligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarning ijobiy natijalarini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy SIAT ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda kambag'allik darajasi 2021-yilda 17,0 foizni, 2022-yilda 14,1 foizni, 2023-yilda 11,0 foizni, 2024-yilda 8,9 foizni va 2025-yilda 5,8 foizni tashkil etgan. Shunday qilib, 2021–2025-yillar davomida kambag'allik darajasi 11,2 foiz punktga kamaygan.³

Yil	Kambag'allik darajasi, %	Oldingi yilga nisbatan o'zgarish, foiz punkt
2021	17,0	-
2022	14,1	- 2,9
2023	11,0	-3,1
2024	8,9	-2,1
2025	5,8	-3,1

1-jadval. O'zbekistonda kambag'allik darajasining dinamikasi

Kambag'allikning qisqarishi bilan bir qatorda aholi daromadlarining o'sishi ham kuzatilgan. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, aholi jon boshiga umumiy daromadlar 2020-yildagi 12 888,6 ming so'mdan 2025-yilda 29 935,5 ming so'mgacha oshgan. 2025-yilda ushbu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan qariyb 2,3 baravar yuqori bo'lgan.⁴

Mehnat bozori ko'rsatkichlarining o'zgarishi ham kambag'allik dinamikasi bilan bog'liq muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda bandlik darajasi 2021-yildagi 67,0 foizdan 2025-yilda 70,5 foizgacha oshgan. Shu davrda ishsizlik darajasi 9,6 foizdan 4,8 foizgacha kamaygan.⁵

³ Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, SIAT ma'lumotlari. <https://stat.uz/>

⁴ Manba: <https://siat.stat.uz/data/329/?lang=uz>

⁵ Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi <https://siat.stat.uz/data/1311/?lang=uz>

Yil	Bandlik darajasi, %	Ishsizlik darajasi, %
2021	67,0	9,6
2022	67,2	8,9
2023	67,9	6,8
2024	68,3	5,5
2025	70,5	4,8

2-jadval. Bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlari dinamikasi

2025-yil hududiy ma'lumotlari asosida kambag'allik darajasi bilan aholi daromadlari, bandlik va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlik alohida tahlil qilindi. Mazkur tahlilda O'zbekistonning 14 ta hududi hamda Toshkent shahri bo'yicha rasmiy statistik ko'rsatkichlardan foydalanildi. Kambag'allik darajasi bo'yicha hududiy ma'lumotlar SIAT bazasida 2021–2025-yillar kesimida berilgan.⁶

2021 2022 2023 2024 2025
Yil

Ekonometrik baholash natijalariga ko'ra, 2025-yil hududiy kesimida aholi jon boshiga daromad bilan kambag'allik o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud. Aholi jon boshiga daromad oshgan hududlarda kambag'allik darajasining nisbatan past bo'lish tendensiyasi kuzatildi. Daromadning kambag'allikka ta'sirini baholash uchun tuzilgan bir omilli regressiya modelida determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,700$ ni tashkil etdi. Bu kambag'allik darajasidagi hududiy tafvutlarning qariyb 70 foizi aholi jon boshiga umumiy daromadlar o'zgarishi bilan statistik jihatdan bog'liqligini anglatadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda kambag'allik dinamikasi aholi daromadlari, bandlik va ishsizlik kabi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. 2021–2025-yillarda mamlakatda kambag'allik darajasining 17,0 foizdan 5,8 foizgacha pasayishi aholining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, bandlikni oshirish va ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim natijalaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Rasmiy statistik ma'lumotlarda qayd etilgan mazkur tendensiya kambag'allikni qisqartirish siyosati izchil davom etayotganini ko'rsatadi.

Tadqiqotda aniqlangan aholi jon boshiga daromadlar va kambag'allik o'rtasidagi teskari bog'liqlik iqtisodiy nazariyadagi mavjud qarashlarga mos keladi. Daromadlarning oshishi uy xo'jaliklarining oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta'lim, tibbiy xizmat va boshqa zarur ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada aholining kambag'allik chegarasidan yuqoriga chiqish ehtimoli ortadi. Shu nuqtayi nazardan, kambag'allikni qisqartirish siyosatida faqat kam ta'minlangan aholiga bevosita yordam ko'rsatish emas, balki ularning barqaror daromad manbalarini yaratishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Daromadlarning o'sishi bilan bir qatorda bandlikning kengayishi ham kambag'allikni qisqartirishning muhim

omili hisoblanadi. Tadqiqot natijalarida bandlik darajasi va kambag'allik o'rtasida teskari bog'liqlik aniqlangan. Bu holat mehnat bozorida iqtisodiy faollikning oshishi aholi daromadlarini shakllantirishning asosiy manbalaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, mehnatga layoqatli aholining doimiy va rasmiy bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda mehnat unumdorligini oshirish kambag'allikni uzoq muddatli istiqbolda qisqartirish imkonini beradi.

Ishsizlik darajasi bilan kambag'allik o'rtasidagi musbat bog'liqlik ham alohida e'tiborga loyiq. Ishsiz aholining daromad manbalariga ega bo'lmasligi yoki daromadlarining qisqarishi uy xo'jaliklarining iste'mol imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli ishsizlikni qisqartirish kambag'allikka qarshi siyosatning mustaqil va muhim yo'nalishi sifatida qaralishi kerak. Bunda yangi ish o'rinlarini yaratish bilan bir qatorda aholining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish, qayta tayyorlash va zamonaviy mehnat bozori talablariga mos mutaxassisliklarni kengaytirish muhimdir.

Tadqiqot natijalarining yana bir muhim jihati hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafvutlarning mavjudligidir. Aholi jon boshiga daromadlarning hududlar bo'yicha sezilarli farq qilishi kambag'allik darajasida ham hududiy tafvutlar shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli kambag'allikni qisqartirish bo'yicha yagona respublika miqyosidagi siyosat bilan bir qatorda hududlarning iqtisodiy salohiyati, mehnat bozori, demografik tarkibi va infratuzilmaviy imkoniyatlarini hisobga oluvchi differensial yondashuv zarur.

O'zbekistonning uzoq muddatli rivojlanish siyosatida kambag'allikni qisqartirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'zbekiston - 2030" strategiyasida aholi farovonligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Mazkur strategik maqsadlar kambag'allikni faqat daromad yetishmovchiligi sifatida emas, balki aholining iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog'liq kompleks hodisa sifatida o'rganishni talab qiladi.

2026-yilda qabul qilingan mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha bo'lgan ustuvor yo'nalishlari doirasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar ham islohotlarni yangi bosqichda davom ettirishga qaratilgan. Bu esa kambag'allikni

⁶ <https://Siat.stat.uz>

qisqartirish siyosatida statistik monitoring va ekonometrik baholashning ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki kambag'allik darajasining o'zgarishini muntazam kuzatish bilan bir qatorda, uning qaysi omillar hisobiga kamayishi yoki oshishini miqdoriy jihatdan aniqlash davlat siyosati samaradorligini baholash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot natijalari kambag'allikni baholashda birgina umumiy kambag'allik ko'rsatkichidan foydalanish yetarli emasligini ko'rsatadi. Kambag'allik darajasi bilan birgalikda aholi jon boshiga daromad, bandlik, ishsizlik, inflyatsiya, ijtimoiy transfertlar, ta'lim darajasi va hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni kompleks tahlil qilish zarur. Bunday yondashuv kambag'allikning shakllanish mexanizmlarini chuqurroq tushunish va maqsadli siyosiy choralarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqotning metodologik jihatdan muhim jihati shundan iboratki, hududiy ekonometrik tahlil kambag'allikning hududlar bo'yicha farqlanishini aniqlash imkonini beradi. Biroq mazkur natijalarni sabab-oqibat munosabati sifatida mutlaq talqin qilish to'g'ri emas. Kambag'allik ko'p omilli hodisa bo'lib, unda iqtisodiy, demografik, ijtimoiy va institutsional omillar bir vaqtning o'zida ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun kelgusidagi tadqiqotlarda 2021-2025-yillar bo'yicha hududiy panel ma'lumotlaridan foydalanib, vaqt va hudud omillarini birgalikda hisobga oluvchi ekonometrik modellarni qo'llash maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish jarayoni daromadlarning o'sishi, bandlikning kengayishi va ishsizlikning kamayishi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, kelgusida kambag'allikni yanada qisqartirish uchun aholining barqaror daromadlarini oshirish, sifatli va rasmiy bandlikni kengaytirish, inson kapitaliga investitsiyalarni ko'paytirish hamda hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan kompleks choralarni kuchaytirish zarur.

XULOSA

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda 2021-2025-yillarda kambag'allik darajasi sezilarli ravishda kamayganini ko'rsatdi. Mazkur ijobiy dinamika aholi jon boshiga daromadlarning oshishi, bandlik imkoniyatlarining kengayishi va ishsizlik darajasining pasayishi bilan uzviy bog'liq. Kambag'allik darajasining 17,0 foizdan 5,8 foizgacha qisqarishi mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, aholi farovonligini oshirish va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning muayyan samalarini ifodalaydi.

Ekonometrik tahlil natijalari aholi jon boshiga daromadlarning oshishi kambag'allik darajasining pasayishi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Daromadlarning o'sishi aholining asosiy ehtiyojlarini qondirish, ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish hamda turmush sharoitlarini yaxshilash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli kambag'allikni qisqartirish siyosatida qisqa muddatli ijtimoiy yordamlar bilan bir

qatorda aholining barqaror daromad manbalarini shakllantirishga ustuvor ahamiyat berish zarur.

Tadqiqotda bandlik va kambag'allik o'rtasida teskari, ishsizlik va kambag'allik o'rtasida esa to'g'ri bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Bu esa kambag'allikni qisqartirishda yangi ish o'rinlarini yaratish, rasmiy va barqaror bandlikni kengaytirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda aholining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tahlil hududlar o'rtasida kambag'allik darajasi va unga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Shu bois kambag'allikni qisqartirish siyosatini amalga oshirishda hududlarning iqtisodiy salohiyati, mehnat bozori, infratuzilmasi va demografik xususiyatlarini hisobga oluvchi differensial yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, kambag'allikni barqaror ravishda qisqartirish faqat aholining daromadlarini oshirish bilan cheklanmay, sifatli bandlikni ta'minlash, inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, kambag'allik ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish va unga ta'sir etuvchi omillarni hududiy panel ma'lumotlari asosida ekonometrik baholash davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining samaradorligini oshirish uchun muhim ilmiy-amaliy vosita bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son Farmoni. - Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni. - Toshkent, 2026.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston - 2030" strategiyasini 2025-yilda amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni. - Toshkent, 2025.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "2024-yilga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining davlat dasturi to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoni. - Toshkent, 2024.

5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kambag'allik darajasi bo'yicha statistik ma'lumotlar. SIAT ochiq ma'lumotlar bazasi. – Toshkent, 2026.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Aholi jon boshiga umumiy daromadlar. SIAT ochiq ma'lumotlar bazasi. - Toshkent, 2026.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlari. SIAT ochiq ma'lumotlar bazasi. - Toshkent, 2026.